

INSON va qonun

www.adolatmarkazi.uz telegram.me/hudud24official/ facebook.com/hudud24official/

2023-YIL
31-YANVAR
SESHANBA

№ 04 (1364)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



1-FEVRALDAN QONUNCHILIKDA NIMALAR O'ZGARADI?

Prezidentimizning 2022-yil 23-dekabr-dagi qaroriga ko'ra, 1-fevraldan boshlab 2026-yil 1-fevralga qadar "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" va "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" tomonidan ishlab chiqarilgan qimmatbaho metallarni birja savdolarida sotishda tadbirkorlarga chegirmalar beriladi.



Qiymati 100 million so'mgacha
zargarlik buyumlarini bojxona
deklaratsiyasini to'ldirmasdan olib
chiqish mumkin

Chegirmalar quyidagi tartibda taqdim etiladi:

- 100 dan 300 tagacha ish o'rinlarini yaratgan tadbirkorlik subyektlariga – London qimmatbaho metallar bozori uyushmasining ertalabki fiksing narxining 1 foizi miqdorida;
- 300 dan 500 tagacha ish o'rinlarini yaratganlarga – 2 foizi miqdorida;
- 500 dan 1000 tagacha ish o'rinlarini yaratganlarga – 3 foizi miqdorida;
- 1000 ta va undan ortiq ish o'rinlarini yaratganlarga – 4 foizi miqdorida.

Bundan tashqari, shu yilning 1-fevralidan boshlab, rezident va norezident jismoniy shaxslar qiymati 100 million so'mgacha bo'lgan tayyor zargarlik buyumlarini yo'lovchi bojxona deklaratsiyasini to'ldirmasdan tashqariga olib chiqish huquqiga ega bo'ladi.

Agarda zargarlik buyumlari 100 million so'm va undan ortiq bo'lsa yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi asosida olib chiqiladi.

2023-yil 1-fevraldan boshlab affina korxonalari va zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlar qimmatbaho metallar va tarkibida qimmatbaho metallari mavjud bo'lgan xomashyoni bojxona hududida qayta ishlash, bojxona rejimiga joylashtirish va tarkibida qimmatbaho metallari mavjud bo'lgan qayta ishlash mahsulotlarini tashqariga olib chiqishda maxsus turdagi tovarlarni eksport va import qilish uchun litsenziya olish majburiyatidan ozod etiladi.

2-betda o'qing



Adliya organlari va muassasalarida
korruptsiyaga duch kelsangiz,

BIZGA KABAR BERING

Adliya organlari va muassasalarida korruptsiyaga qarshi murosasiz urush e'lon qilingan.

Bunda Adliya vazirligi tizimidagi, jumladan:

- adliya boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari;
- yuridik xizmat ko'rsatish markazlari;
- FHDYo organlari;
- davlat xizmatlari markazlari;
- X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi va uning hududiy bo'linmalari;
- "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi" davlat muassasasi;
- "Adliya organlari va muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" davlat muassasasi;
- "Davlat xizmatlarini rivojlantirish markazi" davlat muassasasi;
- "Intellectual mulk markazi" davlat muassasasi;
- davlat notarial idoralari va arxivlari;
- Yuristlar malakasini oshirish markazi;
- Toshkent davlat yuridik universiteti;
- yuridik texnikumlar;
- TDYu qoshidagi akademik litseydagi korruptsiya holatlari haqida ma'lumotlarni telegramdagi @antikorbot botiga, "(71) 207-04-64 (1321 yoki 1322)" telefoniga yoki vazirlik rasmiy veb-saytidagi maxsus platformaga (www.minjust.uz/uz/anticorruption/feedback) yuborish mumkin.

Yuborilgan xabarlar belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi hamda murojaat qiluvchining shaxsi sir saqlanishi kafolatlanadi.



NIKOHDAN AJRATISH MUDDATINI O'ZGARTIRISH KERAK!

BUGUNGI kunda oilaviy ajrimlar soni ortgani barchamizga ma'lum haqiqat. Ayniqsa, yosh oilalar o'rtasida turli xil kelishmovchiliklar sababli oilaviy munosabatlar buzilib, erta ajrashishlar soni ortib bormoqda. Bunga qonunchilimizdagi ayrim tartibga solinmagan normalar ham sabab bo'layotgandek, nazarimda. Maqolamiz shu haqda.

5-betda o'qing



Inson hayotini asrashdan
muhimroq qoida yo'q!

3-betda o'qing



Moliyaviy sanksiya
bekor qilindi

4-betda o'qing

2 MOHIYAT

Aksariyat davlatlarda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularga davlat tomonidan moddiy-ma'naviy ko'mak berish masalasi obyektiv darajaga ko'tarilgan. Ammo ko'pchiligimiz erning xotinidan aliment talab qilish huquqi borligini bilmaymiz. Bilsak ham, ba'zi insonlar uchun bu holat erkaklik or-nomusining toptalishidek tuyulishi mumkin.




Milliy qonunchiligimiz har ikkala jinsning barcha sohada tengligiga asoslanadi. Demak, er ham, xotin ham qonunga muvofiq bir-birlaridan aliment talab qilishga haqli. Lekin erning aliment talab qilish huquqida ba'zi shartlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 117-moddasi talablariga ko'ra, er-xotin bir-biriga moddiy yordam berishi shart. Bunday yordam berishdan bosh tortilgan taqdirda, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin yordam berishga qodir bo'lgan xotindan (erdan) sud tartibida ta'minot (aliment) olish huquqiga ega.

Ya'ni, mazkur moddada moddiy yordamga muhtoj er moddiy ko'maklashishga qurbi yetgan xotinidan ta'minot (aliment) olishi qonunda o'z tasdig'ini topgan. Agar er-xotin sud tartibida nikohdan ajrashsa, o'rtadagi nogironligi bo'lgan bolani u o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar parvarishlashni yoki bolalikdan I yoki II guruh nogironligi bo'lgan bolani parvarishlashni amalga oshirgan, yordamga muhtoj bo'lgan va nikohdan ajralgunga qadar yoki nikohdan ajralgan paytdan boshlab bir yil davomida mehnatga layoqatsiz bo'lib qolgan, nikohdan ajralgan paytdan boshlab besh yil ichida pensiya yoshiga yetgan yordamga muhtoj er xotindan sud tartibida aliment talab qilishi mumkinligi qonunchiligimizda belgilangan.


Nikohdan ajralgandan keyin sobiq er yoki xotining to'lanadigan aliment miqdori va uni to'lash tartibi sobiq er-xotin o'rtasidagi kelishuv bilan belgilanishi mumkin. Aksariyat holatlarda ular o'rtasida kelishuv tuzilmasa, nizo fuqarolik sudi tomonidan hal etiladi.



KO'PCHILIK "aliment" atamasini eshitishi bilan oq, ota-onaning voyaga yetmagan farzandiga beradigan majburiy moddiy ta'minotini ko'z oldiga keltiradi. Vaholanki, aliment nafaqat ota-onaning voyaga yetmagan, muomalaga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga, balki bolalarning ota-onasiga, er-xotinning, qarindoshlar va boshqa shaxslarning bir-biriga qonunga muvofiq beradigan ta'minotidir. Er-xotinning bir-birlariga moddiy ta'minot berish majburiyatlari mulkiy huquq va majburiyatlarning turlaridan biri hisoblanadi.

Oila

MODDIY TA'MINOT OLIISH maqsadida qurilmaydi



Oila kodeksining 119-moddasiga binoan er-xotin (sobiq er-xotin) o'rtasida aliment to'lash to'g'risida kelishuv mavjud bo'lmagan hollarda er yoki xotining (sobiq er yoki xotining) sud tartibida undirib beriladigan aliment miqdori sud tomonidan er yoki xotinning (sobiq er yoki xotinning) moddiy va oilaviy ahvolini hamda taraflarning e'tiborga loyiq boshqa manfaatlarini e'tiborga olib, har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi, biroq bu summa qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 11,75 foizidan kam bo'lmayligi lozim.

Hozirgi kunda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 920 ming so'mligini hisobga olsak, aliment 108 ming 100 so'mdan kam bo'lmayligi zarur. Demak, mazkur qoidaga ko'ra, aynan er-xotinning bir-birlariga beradigan aliment miqdorining eng kam qat'iy summasi qonunchiligimizda belgilangan, biroq eng ko'p miqdori qonun va qonunosti normalarida ko'rsatilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyul-

dagi "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 6-sonli qarorida ham er-xotin o'rtasida mehnatga layoqatsiz muhtoj er yoki xotining moddiy ta'minot berish yuzasidan nizoli munosabatlar ham borligi o'z ifodasini topgan.

Har bir davlatning qonunchiligida bu borada o'ziga xoslik kuzatiladi. Masalan, mazkur masala Hindiston qonunchiligida alohida norma bilan tartibga solingan. Xususan, erning o'z xotinidan aliment talab qilish huquqi 1955-yildagi Hindiston Respublikasining "Nikoh to'g'risida"gi qonuniga muvofiq ta'minlanadi. Ushbu qonunning 25-moddasida xotinning yordamga muhtoj eriga doimiy ravishda aliment to'lash majburiyati belgilangan. Sud er va xotinning daromadlarini hisobga olgan holda, xotinni erining ba'zi xarajatlarini qoplashga majbur qilishi mumkin. To'lanishi kerak bo'lgan qat'iy ta'minot miqdori Hindiston qonunchiligida belgilanmaganligi, aliment miqdorini aniqlash sudning ixtiyorida ekanligi ba'zida adolatsiz sud hujjatlari chiqarilishiga olib kelishi ehtimoldan holi emas, albatta.

Sud tartibida er-xotinning bir-biridan ta'minot olish huquqi mudatsiz emas. Oila kodeksining 117 va 118-moddalariga muvofiq ta'minot olish uchun asos bo'lgan shartlar tugagan taqdirda, shuningdek nikohdan ajralgan yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin yangi nikohga kirganda aliment berish majburiyati ham tugaydi.

Shuni unutmash lozimki, oila moddiy ta'minot olish maqsadida qurilmaydi. Bu kichik "vatan"da ham erkakning, ham ayolning daromadlari teng taqsimlanishi, kezi kelganda, qay birida imkoniyat kuchli bo'lsa, ikkinchisiga beg'araz ko'mak berishi, halollik bilan topilgan mol-mulkka esa faqat oila farovonligini ta'minlovchi ustunlardan biri sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Malika TOLLIBAYEVA,
"Madad" NNT Samarqand shahar huquqiy maslahat byurosi bosh mutaxassisi

Ⓜ Davomi. Boshlanishi 1-betda

1-FEVRALDAN QONUNCHILIKDA NIMALAR O'ZGARADI?



ELEKTRON ADVOKATLIK ORDERINI BERISH AMALIYOTI YO'LGA QO'YILADI

PREZIDENTIMIZNING 2022-yil 30-maydagi qaroriga asosan, 2023-yil fevraldan advokatlik tuzilmalari advokatlariga muayyan ishni olib borish uchun beriladigan an'anaviy shakldagi order maqomiga teng bo'lgan maxsus QR-kod qo'yilgan "Elektron advokatlik orderi"ni berish amaliyotini yo'lga qo'yadi.

Order muqobilik asosida qog'oz shaklda rasmiylashtirilganida, ushbu order haqidagi ma'lumotni "Yuridik yordam" axborot tizimiga kiritish majburiy hisoblanadi.

Advokat so'rovi shakliga qo'yilgan talablar, shu jumladan unga orderning ko'chirma nusxasini ilova qilish, orderni qayd etish daftarini yuritish talablari bekor qilinadi.



KICHIK VA O'RTA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI SAVDO-SANOAT PALATASI A'ZOLIGIGA TEKIN QABUL QILINADI

Prezidentning 2023-yil 23-yanvardagi qaroriga muvofiq, 2023-yil 1-fevraldan boshlab mikro, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari palata a'zoligiga, a'zolik va kirish badallaridan ozod qilingan holda tekin qabul qilinadi.

Qonunda nazarda tutilgan palata tomonidan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha pullik xizmatlar bundan mustasno.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan davlat ro'yxatidan o'tgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar a'zo sifatida ro'yxatga qo'yish uchun Palataga elektron tizim orqali yuboriladi.

Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi hududiy jamoat fondlari hisobidan Palataning asoslangan hisob-kitoblariga muvofiq, mos ravishda Palata va uning hududiy bo'linmalariga davlat subsidiyasini ajratish tizimi joriy etiladi.


Maqsud MUSTAFOYEV,
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi



YO'LLARDAGI harakatlanish xavfsizligini ta'minlash butun dunyoda eng dolzarb muammolardan biriga aylangan. Yurtimizda ham sohaga taalluqli qonunlar, hukumat qarorlarining yangilanishiga qaramay, bu muammo dolzarbligicha qolmoqda.



Buyuk Britaniyada haydovchilar tezlikni maksimal chegarasidan 10 foizga oshirsa, 100 funt-sterling jarima va 3 ball beriladi. Agar tezlik chegarasidan 45 foizdan ortiq tezlikka oshirilsa, haydovchi avtomobil boshqarish huquqidan mahrum qilinadi. Ayrim davlatlarda ushbu ballar limitining oshib ketishi sud qarorlari asosida haydovchilarga nisbatan umrbod haydovchilik huquqidan mahrum qilish hamda jinoyi javobgarlikka sabab bo'ladi. Bizda ham bu normalar amaliyotga kiritilsa, yo'llardagi qoidabuzarliklar keskin kamayishi aniq!



TEZ YURGAN "TEZ YORDAM"GA IMTIYOZ BORMI?

Haydovchilar qoidabuzarligi uchun jarima ballarini hisoblash tizimining joriy etilishidan qaltis vaziyatga duch keladigan, umuman yo'llardagi "qopqon"larga tez-tez tushib, haqsiz jazo oladigan transport egalari ham bor. Masalan, "Tez tibbiy yordam" mashinalari haydovchilarini olaylik. Kimningdir hayotini saqlab qolish uchun "Tez tibbiy yordam" mashinalari shamoldek uchib o'tayotgan yo'llarning koshki "tili" bo'lsa. Tepada turgan kameralarning esa "tili" juda o'tkir. Tezlikni oshirgan "tez yordam"larga darrov tushov qo'yib, jarima bosishga usta. Yaqinda bir guruh tez yordam haydovchilari xuddi shunday muammoga duch keldi. Aslida bu eski muammo. Bunaqada jarima qog'ozi kelishidan qo'rqqan tez yordam haydovchilarining xayoli bemorni tezroq shifoxonaga yetkazishda emas, balki yo'l qoidalarini buzmaslikda bo'lishi turgan gap. Jarima yozilgach, uni bekor qilishning o'zi bo'lmastigini juda yaxshi bilamiz. Inson hayoti uchun mas'uliyat yelkasiga yuklangan bu haydovchilar nima qilsin? Shunday paytda "tez yordam"ga yordam beradigan normalarimiz bormi?

Haydovchilarning belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan yoki majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilmagan transport vositalarini boshqarishi, – BHMning 50 foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, foydalanish belgilangan tartibda man etilgan transport vositalarini, xuddi shuningdek davlat raqam belgisi o'zboshimchalik bilan yechib olingan transport vositalarini boshqarish – BHMning 5 baravari miqdorida jarama deganidir.

YO'LOVCHINING HAM AYBI BOR...

Ko'pchilik yo'l-transport hodisasi tufayli sodir bo'lgan halokatlarga faqat haydovchilarni aybdor deb hisoblaydi. To'g'ri, haydovchilarning yo'lida uxlab qolishi, mast holda boshqaruvni yo'qotishi, tezlikni oshirishi, mashinaning texnik nosozligiga e'tiborsizlik va mas'uliyatsizlik tufayli qancha-qancha odamlar, yosh bolalar avtohalokat qurboniga aylanmoqda. Ammo ba'zi hollarda piyodalarning o'zi ham bu fojialarga sabab bo'layotganligini tan olishga to'g'ri keladi. Bunga sabab ayrim hollarda yo'llarda odamlar uchun qulayliklarning yo'qligi bo'lsa, belgilangan piyodalar yo'laklaridan o'tishda yarmiga yetganda svetofor chirog'ining qizil ko'zi yonib qolishiga e'tibor qilmaslik ham bunday noxush hodisalarning sodir bo'lishiga olib kelmoqda. Yo'lni kesib o'tishga mo'ljallanmagan joylardan o'tish ham ba'zida fojia bilan tugayotganligi hech kimga sir emas.

Qoidabuzarlik uchun, ya'ni – piyodalarning yo'l harakatini tartibga soluvchi signallarga bo'ysunmasligi, ularning yo'lining harakat qismini belgilanmagan joylardan kesib o'tishi, piyodalar yo'lining qatnov qismida, shu jumladan piyodalar o'tish joyida harakatlanayotganda telefonidan foydalanishi, kitoblarni yoki davriy nashrlarni o'qishi, videomateriallarni tomosha qilishi hamda audiomateriallarni eshitishi, shuningdek, e'tiborni chalg'itadigan boshqa elektron vositalardan foydalanishi, moped va velosiped haydovchilarining, ulovli aravani boshqarib boruvchi va yo'ldan foydalanuvchi boshqa shaxslarning yo'l harakatini tartibga soluvchi signallarga bo'ysunmasligi, ustunlik beruvchi, taqiqlovchi yoki ko'rsatma beruvchi yo'l belgilari talablariga rioya etmasligi – bazaviy hisoblash miqdorining uchdan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ochig'ini aytish kerak, ko'p hollarda yuqoridagi jarima jazosi faqat qog'ozlardagina mavjudligiga guvohimiz. Chunki barchamiz kundalik harakatimiz davomida yo'l qoidalarini buzayotganimizni tan olamiz. Ammo biror marta jarimaga tortilganimiz yo'q. Eng achinarlisi, belgilanmagan joydan yo'lni kesib o'tayotgan ota-onalarning yonlarida yosh bolalari ham bor. "Qush uyasi-da ko'rganini qiladi" deganday... Bolalarga yo'l qoidasini o'rgatish o'rniqa ularning qo'ldan ushlab yo'lining xohlagan joyidan, svetoforning xohlagan chirog'ida yugurib o'tayotgan, o'g'il-qizini qoidabuzarlikka o'rgatayotgan ota-onalar afsuski, ko'pchilikni tashkil etadi.

Unutmang! Yo'l qoidasi umrimizga daxldor. Xavfsizlik chorrahasi esa hayot chorrahasi. Bu chorrahalarda inson hayotini asrashdan muhimroq vazifa, undan kuchliroq qoida yo'q!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

Inson hayotini asrashdan



MUHMROQ QOIDA YO'Q!

HAMMASI HAYDOVCHIGA BOG'LIQ...MI?!

To'g'risini aytganda, ayrim haydovchilarda nafaqat madaniyat, balki mas'uliyat ham yetarli emas. Bu juda ko'plab yo'l-transport hodisalari va ko'ngilsiz holatlarga sabab bo'lmoqda. Davlatimiz rahbari ham hukumat yig'ilishlaridan birida yo'llardagi avariya oqibatida odamlar ko'p vafot etayotgani, bunga darsga bormasdan haydovchilik guvohnomasini olish sabab bo'layotganini ta'kidlagandi.

Buning isbotini quyidagi statistik ma'lumotlarda ham ko'rish mumkin: "Har yili 500 ming kishi haydovchilik guvohnomasini oladi, lekin 25 foizi mashg'ulotlarga qatnashmaydi."

Ko'rinib turibdiki, bu illat va ko'ngilsizliklarning bir uchi haydovchilarni o'qitish, ularning bilim va ko'nikmalarini oshirishga mas'uliyatsizlik, qandaydir manfaatlar nuqtayi nazaridan yondashishga ham borib taqalayapti. Pulga sotib olingan "prava"... U bilan qayergacha borish mumkin? U bilan hayot chorrahaslaridan xavotirsiz, xatarsiz, eson-omon o'ta olamizmi? Demak, hammasi faqat haydovchiga emas, haydovchini o'qitish, tayyorlash, tarbiyalash kabi jarayonlarga ham bog'liqligi ayon.

Mamlakatda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish hamda yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida 2022-yil 4-aprelda Prezidentimizning "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, 2022-yilning 1-dekabridan haydovchilar qoidabuzarligi uchun muhim sinov-jarima ballarni hisoblash boshlanadi. Unga ko'ra, har bir yo'l harakati qoidabuzarligi uchun 12 oy davomida alohida jarima ballari hisoblab boriladi. Bir yilda qoidabuzarliklari 12 balldan oshgan haydovchi ma'lum muddatga avtomobil boshqarish huquqidan mahrum bo'ladi.

BALLAR LIMITI OSHIB KETGANDA...

Ma'lumotlarga ko'ra, Klprda tezlikni 25 dan 50 foizgacha oshirish 2 ballidan 4 ballgacha, 50 foizdan ortiq oshirish esa 6 ball bilan jazolanadi. Chexiyada tezlikni oshirish 7 ball bilan baholalanadi.

Meltada esa tezlikni oshirish 3 ballidan 6 ballgacha, huquqbuzarlik odam urib yuborish bilan bog'liq bo'lsa, 11 ballgacha, haydovchilik huquqidan mahrum qilish esa 12 ball bilan baholalanadi.



Maqsud MUSTAFOYEV,
huquqshunos,
"Adolat" milliy huquqiy
axborot markazi mas'ul
xodimi:

– Albatta, "Tez tibbiy yordam" mashinalari yo'l harakati qoidalariga amal qilishda imtiyozga ega. Yo'l harakati qoidalarining 25-bandiga asosan, tezkor va maxsus xizmatlarning ko'k yoki qizil yoxud ko'k va qizil rangli yalt-yalt etuvchi mayoqchalar yoqilgan transport vositalarining haydovchilari kechiktirib bo'lmaydigan xizmat vazifalarini bajarayotib, harakatlanish xavfsizligini ta'minlash sharti bilan ushbu qoidalarining talablaridan chetga chiqishlari mumkin.

Bunda tezkor va maxsus xizmatlar haydovchilari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik oxirgi zarurat holatlari sifatida sodir etilgan deb topilib, ma'muriy ish tugaltiladi hamda jarima qo'llanmaydi.

Jurnalist izohi: Ma'muriy ish tugatilguncha haydovchining eh-he, qancha qimmatli vaqtiyu qancha asablari ketishini izohlashga hojat yo'q!

Yana bir muammo sifatida texnikaning nosozligi ortidan keladigan ko'ngilsizliklarni aytish mumkin. Uzoq yo'llarning mashaqqati, mas'uliyati o'zgacha. Yo'llar talabingizga javob bermasa ham, Siz, aniqrog'i, avtoulowingiz talab va qoidalarga javob berishi shart. Bu hayot uchun muhim qoida. Qanday taleblar, deysizmi? Masalan, yo'l harakati qoidalariga ko'ra, haydovchiga tormoz tizimi, rul boshqaruvi ishlamayotgan, sutkaning qorong'i vaqtida yoki ko'rinish cheklangan vaziyatlarda fara chiroqlari va orqa gabitir fara chiroqlari yonmaydigan, yomg'ir yoki qor yog'ayotgan vaqtda oyna tozalagichi ishlamaydigan transport vositasini boshqarish taqiqlanishini bilasizmi?

4 MUHOJAAATLAR ADLIYA NIGOHIDA

SIRDARYO

FUQARO Muslimbek Razzaqov o'ziga tegishli noturar joy binosi uchun tovon pulini olish maqsadida bir necha bor turli idoralarga murojaat qilgan. Natija bo'lmagach, Guliston shahar adliya bo'limidan amaliy yordam so'radi.



TOVON PULI UNDIRILDI

Shahar hokimligining 2022-yil 8-avgustdagi xatida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabr-dagi qaroriga asosan davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash markazlashtirilgan jamg'arma mablag'lari hisobidan belgilangan tartibda amalga oshirilishi ma'lum qilingan. Murojaatni o'rganish yakuni-ga ko'ra, shahar adliya bo'limi tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha Guliston tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sudning 2022-yil 23-dekabr-dagi qaroriga asosan davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'arma mablag'lari-ni shakllantirish hududiy jamg'armasining Sirdaryo viloyat moliya boshqarmasi g'aznachiligida ochilgan shaxsiy hisob raqamida jamg'arilgan mablag' hisobidan 53 million 924 ming 321 so'm kompensatsiya undirilib, M. Razzaqovning murojaati to'liq qanoatlantirildi.

Nazar QARSHIBOYEV,
Guliston shahar adliya bo'limi boshlig'i

TOSHKENT

TADBIRKOR B. Qodirov Toshkent viloyat adliya boshqarmasiga murojaat qilib, buzilgan savdo do'koni uchun kompensatsiya to'lovini undirib berishda huquqiy yordam so'ragan.

HOKIMLIKKA NISBATAN
SUDGA DA'VO ARIZA
KIRITILDI

Aniqlanishicha, Yangiyo'l shahar hokimining 2018-yil 2-fevraldagi 31-sonli qaroriga asosan B. Qodirovga tegishli savdo do'koni buzilgan. O'tgan vaqt davomida tadbirkorlik subyekti Yangiyo'l shahar hokimligiga buzilgan do'koni uchun kompensatsiya pulini to'lab berishini so'rab bir necha bor murojaat qilgan, biroq hokimlik pulni to'lashni paysalga solib kelgan.

Viloyat adliya boshqarmasi tomonidan tadbirkorning murojaati o'rganilib, uning manfaatida buzilgan do'koni uchun kompensatsiya puli undirish yuzasidan javobgar Yangiyo'l shahar hokimligiga nisbatan fuqarolik ishlari bo'yicha Yangiyo'l tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sud tomonidan da'vo arizasi to'liq qanoatlantirilib, hal qiluv qaroriga asosan manfaatdor – to'rt yil sarson bo'lgan tadbirkor B. Qodirov foydasiga 262 million 176 ming so'm kompensatsiya undirilishi belgilandi.

Jahongir ALIYEV,
Toshkent viloyat adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi

BUXORO

PESHKU tumanida faoliyat yurituvchi "Rahmon Doston Kelajagi" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari soliq idorasi tomonidan asossiz moliyaviy sanksiya qo'llanganidan shikoyat qilib, tuman adliya bo'limiga murojaat qildi. O'rganuv mobaynida soliq idorasining tekshirish o'tkazish tartibini buzganligi aniqlandi.

MOLIYAVIY SANKSIYA
BEKOR QILINDI

Qonunchilik hujjatlariga ko'ra soliq nazoratini amalga oshirishga doir harakatlarning xolisligi videotasvirga olish qurilmalaridan foydalanish vositasida amalga oshiriladi. Shuningdek, ishning natijasidan manfaatdor bo'lmagan har qanday voyaga yetgan jismoniy shaxslar xolislar sifatida jalb etilishi mumkin.

Bundan tashqari, sayyor soliq tekshiruvini o'tkazishga jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliq yoxud valyuta to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlari to'g'risidagi murojaatlari va xabarlari asos bo'ladi.

Lekin soliq idorasi tomonidan sayyor soliq tekshiruvini o'tkazishning yuqoridagi tartiblari-ga rioya qilinmagan.

Shu sababli, adliya bo'limi aralashuvi bilan tadbirkorga hisoblangan 10 million so'm miqdoridagi moliyaviy sanksiya bekor qilindi.

Muzaffar SULTONOV,
Peshku tuman adliya bo'limi
bosh maslahatchisi

SURXONDARYO

"AKBAR-Anvar-Kelajak" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari A. Allaberdiev Jarqo'rg'on tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, Qumqo'rg'on tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi bilan 2021-yil 5-oktabrda tuzilgan shartnomaga asosan MChJ tomonidan 137 million 999 ming 965 so'mlik asfalt mahsuloti yetkazib berilganligi, unitar korxona mahsulotini 2022-yil 24-yanvarda elektron hisob-fakturaga asosan qabul qilib olgan bo'lishiga qaramasdan, shartnomada ko'rsatilgan summani to'lamasdan kelayotganidan shikoyat qilgan.



PENYASI BILAN UNDIRILDI

Taraflar o'rtasida tuzilgan shartnomaning 2.1-bandiga asosan tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi mahsulot yetkazib berilganidan so'ng o'ying yakuni bilan to'lovlarni amalga oshirishi belgilangan.

Majburiyatlar majburiyat shartlari va qonunchilik talablariga muvofiq bajarilishi kerakligi Fuqarolik kodeksining 236-moddasida ham ko'rsatilgan.

Tadbirkorning unitar korxonaga qarzni to'lab berishini so'rab yo'llagan 2022-yil 15-dekabr-dagi xati javobgar tomonidan javobsiz qoldirilgan, to'lov amalga oshirilmagan.

Shartnomaning 5.3-bandiga asosan, javobgar to'lovi kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanmagan summaning 0,5 foizi, biroq 50 foizdan oshmagan miqdorda penya to'lashi lozim.

Adliya bo'limi tomonidan kiritilgan da'vo arizasiga binoan, Qumqo'rg'on tumanlararo iqtisodiy sudning MChJ hisobiga 137 million 999 ming 965 so'm asosiy qarz, hamda 10 million 349 ming 997 so'm penya, jami 148 million 349 ming 962 so'm mablag' undirilishi haqida hal qiluv qarori chiqarildi.

Safar ALLANAZAROV,
Jarqo'rg'on tuman adliya bo'limi
boshlig'i

ANDIJON

IZBOSKANLIK M. Otaxonova Prezident Xalq qabulxonasiga murojaat qilib, tuman tibbiyot birlashmasi mansabdor shaxslari harakatlardan noroziligini bildirib, amaliy yordam so'ragan.

HAMSHIRA O'Z ISHIGA TIKLANDI

Aniqlanishicha, M. Otaxonova 2010-yil 1-fevralda tuzilgan mehnat shartnomasiga asosan tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasiga nomuayyan muddatga hamshira lavozimiga ishga qabul qilingan. 2021-yil tibbiyot birlashmasi boshlig'ining buyrug'i bilan 2021-yilning sentabridan 2022-yilning yanvariga qadar bo'lgan muddatga homiladorlik va tug'uruq ta'tiliga chiqarilgan. Uning o'rniga fuqaro G. Boltaboyeva bilan muayyan muddatga mehnat shartnomasi tuzilib, o'rindoshlik asosida ishga qabul qilingan.

M. Otaxonova 2022-yilning sentabr oyida ishga qaytishga qaror qiladi va ishga qaytishi tibbiyot birlashmasi boshlig'ining 2022-yil 8-sentabr-dagi buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Biroq unga sentabr-oktabr oylari uchun oylik ish haqi to'lanmagan.

Birlashma mansabdor shaxslari tomonidan Mehnat kodeksining bir nechta moddalari talablari buzilgan. Tuman adliya bo'limi tomonidan mazkur qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish yuzasidan taqdimnoma kiritildi.


Taqdimnomaga asosan M. Otaxonova oldingi ish joyiga qaytarilib, sentabr va oktabr oylarida ishlagan oylik ish haqi to'lab berildi.

Ahadjon G'ULOMJONOV,
Izboskan tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

QONUNCHILIKKA TAKLIF

BUGUNGI kunda oilaviy ajrimlar soni ortgani barchamizga ma'lum haqiqat. Ayniqsa, yosh oilalar o'rtasida turli xil kelishmovchiliklar sababli oilaviy munosabatlar buzilib, erta ajrashishlar soni ortib bormoqda. Bunga qonunchiligimizdagi ayrim tartibga solinmagan normalar ham sabab bo'layotgandek, nazarimda. Maqolamiz shu haqda.

NIKOHDAN AJRATISH MUDDATINI O'ZGARTIRISH KERAK!



O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 39-moddasiga muvofiq, er xotinining rozilgisiz uning homiladorligi vaqtida va bola tug'ilganidan so'ng bir yil mobaynida nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zg'atishga, garchi u tug'ilish haqidagi dalolatnoma yozuvida bolaning otasi sifatida yozilmagan bo'lsa ham, haqli emas. Mazkur qoida bola o'lik tug'ilgan yoki bir yoshga to'lmay vafot etgan hollarga ham tatbiq etiladi. Biroq, mazkur cheklovning yetarli darajada emasligi oiladagi ajrashishlarning oldini olishda kutilgan natijani beryapti, deya olmaymiz.

O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, nikohdan ajratishni cheklashga oid normalarni takomillashtirish zarurligi ko'rinmoqda.

Jumladan, oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash, yoshlar o'rtasida erta nikoh va ajrashishlarning oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarning mavjud emasligi yosh oilalar o'rtasida oilaviy munosabatlarning buzilishiga olib kelmoqda.



MA'LUMOT UCHUN:

2022-yilning 9 oyi davomida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan birinchi instansiya sudlarida nikohdan ajratishga oid 45 ming 853 ta ish ko'rib chiqilgan. Ulardan 24 ming 416 tasi qanoatlantirilgan, 18 ming 698 tasi rad etilgan. 3 ming 649 tasi ko'rmasdan qoldirilgan bo'lsa, 1 ming 855 tasi bo'yicha ish yuritish tugatilgan.

Nikohdan ajratishga oid amaldagi qonun hujjatlarida oilaviy munosabatlarni saqlab qoldirgan hamda nikohdan ajratishni cheklashga doir normalarning (xotinining homiladorlik vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida er xotinining rozilgisiz nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zg'atishi taqiqlangan) yetarli darajada emasligi yosh oilalar o'rtasida erta ajrashishlarga sabab bo'lmoqda.

MA'LUMOT UCHUN:

2022-yilning 9 oyi davomida 34 ming 464 ta ajralishlar qayd etilgan. Bu 2021-yilning 9 oyi-ga nisbatan (29 ming 31 ta) 18,7 foizga ko'p.

Har ming nafar aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 1,4 promilleni tashkil etdi. Bu so'nggi bir necha yil ichida yanvar-sentabr oylaridagi eng yuqori ko'rsatkichdir (o'tgan yilning shu davrida – 1,1 promille).

(Promille – biron-bir sonning mingdan bir ulushi yoki foizning o'ndan bir qismi.)

Oilaviy munosabatlarni mustahkamlash hamda yosh oilalar o'rtasida erta ajrashishlarning oldini olish maqsadida nikoh tuzilgan kundan boshlab bir yil o'tmasdan nikohdan ajratishni cheklashga oid normani amaldagi qonunchilikka kiritish maqsadga muvofiq.

DUNYO TAJRIBASI QANDAY?

Buyuk Britaniya, Xitoy kabi davlatlar qonunchiligida bizning qonunchiligimizdan farqli ravishda nikoh tuzilgan kundan boshlab bir yil ichida nikohdan ajratishga yo'l qo'yilmaydi. Nikohdan ajratish jarayonini nazorat qilish va oilani saqlab qolish konsepsiyasida ham mazkur norma belgilab qo'yilgan.

Xitoy Fuqarolik kodeksiga 2020-yilda kiritilgan o'zgartirishlarga asosan turmush qurgan juftliklar ajrashishni rasmiylashtirishdan oldin ularga o'ttiz kunlik o'z yab ko'rish muddati beriladi. Mazkur



kiritilgan o'zgartirish natijasida 2021-yilning birinchi choragida 296 mingta ajralish ro'yxatga olingan bo'lib, mazkur ko'rsatkich 2020-yilda bir milliontaga yaqin bo'lgan.

TAKLIF

Tahlil natijalari yuzasidan xulosa qildigan bo'lsak, yosh oilalar o'rtasida oilaviy ajrashishlarning oldini olish hamda oila qonunchiligini takomillashtirish zarur. Shu maqsadda amaldagi qonunchilik hujjatlariga nikoh tuzilgan kundan boshlab bir yil o'tmasdan nikohdan ajratishni cheklashga oid normani kiritish taklif etiladi.

Mazkur tartibning joriy etilishi yosh oilalar o'rtasida oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga hamda oilalar buzilishini oldini olishga xizmat qiladi.

Sunnat MAHMUDOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
o'qituvchisi

AYTAYLIK, siz ish-layotgan tashkilot tugatildi yoki shtatlar qisqarishi sababli siz bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilindi. Bunday vaziyatda qanday yo'l tutishni bilasizmi?



SIZ ISHLAYOTGAN TASHKILOT TUGATILGANDA QANDAY YO'L TUTASIZ?



birinchi navbatda mehnat shartnomasi bekor qilingan sanadan so'ng 30 kalendar kuni ichida yashash joyidagi Aholi bandligiga ko'maklashish markaziga ish qidiruvchi shaxs sifatida murojaat qilishi lozim. Markaz 3 oy muddatda, agar 30 kalendar kundan keyin murojaat qilingan taqdirda 10 kun muddat ichida ish topishda yordam beradi. Markaz yuqoridagi muddatlarda 2 marta maqbul keladigan ish taklif qilmasa, bunda xodim ish qidiruvchi shaxs sifatida ro'yxatga olingan kundan e'tiboran ishsiz, deb e'tirof etiladi.

Shundan so'ng markaz ishsiz deb e'tirof etilgan va muddatidan oldin yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan fuqaro bo'yicha maxsus tayyorlangan taqdimnomani 5 kun muddat ichida Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limiga topshiradi.

"Alohida asoslarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo'shatilgan xodimlarga muddatidan oldin pensiya tayinlash tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomaning 6-9-bandlariga asosan markaz tomonidan berilgan maxsus taqdimnoma Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi tomonidan muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlashga asos bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumot o'rinda qayd etish kerakki, muddatidan oldin tayinlangan pensiyalar ishlamaydigan fuqarolarga to'lanadi. Bunday pensiyani olayotgan fuqarolar umumiy asoslarda pensiya olish yoshiga (erkaklar 60 yoshga, ayollar 55 yoshga) yetgunga qadar ishga kirgan hollarda (13-14-bandlar) muddatidan oldin pensiya to'lash to'xtatiladi. Muddatidan oldin pensiya tayinlangandan so'ng fuqarolar ishga kirib, so'ngra belgilangan umumiy pensiya yoshiga yetgunlariga qadar ishdan bo'shasalar, agar mehnat shartnomasi Mehnat kodeksi 100-moddasining ikkinchi qismi 1-bandida ko'rsatilgan sabablarga asosan bekor qilsa, muddatidan oldin pensiya mazkur Yo'riqnomada belgilangan shartlar va tartib asosida qayta tayinlanadi yoki mehnat shartnomasi boshqa sabablarga ko'ra bekor qilsa, muddatidan oldin pensiya qayta tayinlanmaydi hamda avval tayinlangan pensiya to'lovi ham tiklanmaydi.

Shahzod MARDONOV,
Samarqand viloyat adliya
boshqarmasi bosh maslahatchisi


6 KO'ZGU

Darhaqiqat, qonun ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonun qat'iy hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo'ysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, qonun ustuvorligi adolat mezonini hamdir. Chunki, qonun ustuvorligi ta'minlanganiga, adolat qaror topadi, insonlar millati, tili, urf-odati, an'anasi, qadriyatlarini, diniy e'tiqodi, jinsi, ijtimoiy ahvoli kabilarda tenglikka, erishadilar. Aksincha, qonun oyoq osti qilingan mamlakatda talon-torajlik, tengsizlik, adolatsizlik, zo'ronlik va boshqa bir qator salbiy holatlar yuzaga keladi.

Albatta, qonunda xalqning irodasi, xohish va istaklari, manfaat va intilishlari o'zining ifodasini topishi shart. Unga itoatkorlik – bu yuksak huquqiy madaniyat, ma'naviyat va huquqiy ma'rifat belgisidir. Biroq qonunga itoatkorlikni insonning unga ko'r-ko'rona bo'ysunishi ma'nosida tushunmaslik lozim.

Qonunlarga qat'iy rioya etilishi jino-yatchilikning oldini olishning zarur shartlaridan biri hisoblanadi. Qonunning kuchi hayotda uning odilona tatbiq etilishi bilan o'lchanadi. Agar qonun ijrochilari burchlari va mas'uliyatlariga xolisona odilona yondashib, to'g'ri yo'ldan toymay, Vatani, davlat manfaatini va taqdirini o'zlari uchun oliy maqsad deb hisoblasalar, qonunlarni turmushga adolati qo'llasalar, bundan davlat va jamiyat ham, xalq ham naf ko'radi.

ASOSIY qonunimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar" deya qayd etilgan.

QONUN QABUL
QILISHDAJAMIYAT VA XALQNING
UNGA BO'LGAN EHTYOJI
HISOBGA OLINISHI KERAK

Modomiki, qonun ustuvorligining ahamiyati haqida so'z borar ekan, avvalambor ularni qabul qilish jarayonida puxta va muammal, jamiyatda uzoq vaqt o'z foydasini bera oladigan darajada ishlab chiqish lozim. Ya'ni, qonunlarni qabul qilishda jamiyat, xalq unga qanchalik ehtiyoj sezayotgani yoki yo'qligi inobatga olinishi lozim. Aynan shu jihat ham qabul qilinadigan qonunning hayotda qay darajada jamiyatga naf keltirish-keltirmasligini belgilab beradi.

E'tirof etish kerak, qonun ustuvorligini ta'minlashda ayni masalaga mas'ul bo'lgan davlat organlarining xizmati beqiyosdir. Chunki qonun qabul qilinishi bilanoq o'z-o'zidan jamiyatda ustuvor xususiyatga ega bo'lib qolmaydi. Buning uchun o'sha davlat organlarining mashaqqatli xizmat-

lari va mehnatlari talab etiladi. Qolaversa, bu borada qonunlar ijrosini ta'minlashga mas'ul xodimlar har doim oddiy fuqarolarga o'rnatilgan bo'lishlari lozim. Ularning qonunni buzadigan eng kichik xatti-harakati ham nafaqat umumiy taraqqiyotga, balki fuqarolarning hokimiyatga bo'lgan ishonchini barbad qiladi. Shunday ekan, qonunlarning har qanday shaxs, guruhi, siyosiy kuchlar yoxud ijtimoiy tabaqalar manfaatlaridan ustun bo'lishini ta'minlash orqaligina demokratiyani rivojlantirish, uning jamiyatda amal qilishiga erishish mumkin. Uning amal qilishi esa har ikkala taraf – hokimiyat va fuqarolar manfaatiga birdek mos keladi.

Vahob XOLYOROV,
Sho'rchi tuman adliya bo'limi davlat
xizmatlari markazi bo'lim boshlig'i

SO'RAGAN EDINGIZ

IKKILAMCHI IJARAHQAIDA MA'LUMOT
BERSANGIZ?

– HOVLIDA ijarada yashaymiz. Uy egasi bilan ijarah shartnomasi tuzganmiz. Uyning bir qismiga yaqin qarindoshimiz ko'chib o'tmoqchi. Uy egasi bunga rozi bo'ldi. Uy-joyini ikkilamchi ijaraga berish mumkin deb eshitdim. Ikkilamchi ijarah qanday bo'ladi? Buning qonuniy tartibi haqida ma'lumot bersangiz?

Gullola QODIROVA,
Toshkent shahri



– Uy-joyini ikkilamchi ijaraga berish shartnomasiga binoan ijaraga oluvchi ijaraga beruvchining roziligi bilan o'zi ijaraga olgan binoning bir qismini yoki hammasini muayyan muddatga ikkilamchi ijaraga oluvchiga beradi.

Ikkilamchi ijaraga oluvchi uy-joydan mustaqil foydalanish huquqiga ega bo'lmaydi.

Uy-joyini ijaraga berish shartnomasiga binoan ijaraga oluvchi ijaraga beruvchining oldida javobgar bo'lib qolaveradi.

Uy-joyini ikkilamchi ijaraga berish shartnomasi qonunchilikning jon boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydoni normasi haqidagi talablariga rioya etilgan taqdirdagina tuzilishi mumkin. Uy-joyini ikkilamchi ijaraga berish shartnomasi haq evaziga amalga oshiriladi.

Uy-joyini ikkilamchi ijaraga berish shartnomasining muddati uy-joyini ijaraga berish shartnomasining muddatidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Uy-joyini ijaraga berish shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, bir vaqtning o'zida uy-joyini ikkilamchi ijaraga berish shartnomasi ham bekor qilinadi.

Yangi muddatga shartnoma tuzishga bo'lgan imtiyozli huquq to'g'risidagi qoida uy-joyini ikkilamchi ijaraga berish shartnomasiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Savolga Yunusobod tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Dildor MUSAYEVA javob berdi.

MAMLAKATIMIZDA amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati ustuvor darajada budget daromadlarini shakllantirish masalalarining qay darajada yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liq. Iqtisodiy islohotlar samaradorligini amalga oshirish ularning moliyaviy jihatdan asoslanganligiga ham bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda hududlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda mahalliy budgetlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda, shu sababli mahalliy budgetlarning daromadlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

MAHALLIY BUDJET
deganda nima tushuniladi?

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdadiki, aksariyat mamlakatlarda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, investitsion faollikni oshirish, mavjud infratuzilmani yanada yaxshilash, yangi ish o'rinlari yaratish, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish mahalliy budgetlar orqali ta'minlanmoqda.

Prezidentimiz bu borada shunday degan edi: "Moliya sohasida soha va hududlarni mutanosib rivojlantirish hisobidan mahalliy budgetning daromad bazasini kengaytirish zarur. Eng muhimi, tuman va shaharlarda mahalliy budgetlarning kengaytirilishi aholining turmush darajasi va turmush sharoitini, umuman, barqarorlik va osoyishtalikni yuksaltirishga xizmat qilishi kerak".

Xo'sh, mahalliy budget deganda nima tushuniladi? Mahalliy budgetlar – davlat budgetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'larini jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda ma'lum ma'muriy birlikning daromadlar manbalari va ularidan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'naltirilishi va miqdori nazarda tutiladi. Mahalliy budgetlar davlat budgetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'larini jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismidir.

Mahalliy budgetlarning mohiyatini o'zida mujassam etuvchi yuqorida keltirilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda, mahalliy budgetlarga xos bo'lgan eng muhim xarakterli belgilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Mahalliy budget tegishli viloyat, tuman va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Mahalliy budgetlar mahalliy hokimiyat organlarining o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishlari uchun daromadlar manbalari va tushumlar miqdoriga ega bo'lishi lozim. Mahalliy budgetlar hisobidan mahalliy hokimiyatga bo'ysunuvchi korxona, tashkilot va muassasalar moliyalashtiriladi. Bu esa, aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'naltirilishini nazarda tutadi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, mavjud infratuzilmani yaxshilash, aholini ijtimoiy himoya qilish, buniyodkorlik va obodonlashtirish kabi muhim vazifalar bilan bog'liq chora-tadbirlarning moliyalashtirilishi, asosan, mahalliy budgetlar hisobidan amalga oshiriladi. Mahalliy budgetdan ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, madaniyat va kommunal xo'jalik sohalariga mablag'lar sarflanadi. Mahalliy budgetlarning asosiy vazifalari mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari faoliyatini moliyalashtirish, mahalliy iqtisodiyot tarmoqlariga pul

mablag'larini taqsimlash, mahalliy budgetga qarashli korxona, tashkilot va muassasalar faoliyatini moliyalashtirish va nazorat qilish kabilardan iborat. Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlarning roli katta.


Mahalliy budgetlar milliy iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishda – birinchi navbatda jamiyatning ijtimoiy infratuzilmasini saqlash va rivojlantirish uchun davlat mablag'larini taqsimlashda katta ahamiyatga ega. Bu mablag'lar mahalliy budgetlar tizimidan o'tadi.

2020-yildan boshlab mahalliy budgetni samarali shakllantirish va undan oqilona foydalanish yuzasidan mahalliy hokimiyat va mahalliy kengashlarga bir qator vakolatlar berildi. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlasak, keyingi yillarda mahalliy budget daromadlari tarkibida mahalliy soliqlarning ulushi kamayganini kuzatamiz. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning respublika soliqlariga birlashtirilishi mahalliy budget daromadlarida mahalliy soliqlarning kamayishiga olib kelgan. Bugungi kunda mahalliy budgetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash uchun soliqqa oid qonunchilik asosida mahalliy soliqlar ro'yxatini kengaytirish lozim.

Mahalliy budget daromadlarining asosiy qismi soliqlar yordamida shakllanganligi uchun ularning asosida quyidagi prinsiplar bo'lishi kerak. Jumladan, soliqlarning budgetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmastigi, soliqlar ularni to'lovchilar o'rtasida teng, adolati taqsimlanishi; soliqlarning ishlab chiqaruvchilar aylanma fondlari hajmiga ta'sir ko'rsatmasligi, soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi, davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo'lishi, soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak.

Zarina SAMADOVA,
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi tinglovchisi

2023-YIL 16-yanvarda Prezidentimizning “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samarador- ligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tad- birlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.



SUDYANING MUSTAQILLIGI VA DAXLSIZLIK KAFOLATLARI KUCHAYTIRILADI

Mazkur farmon bilan “Yangi O‘zbekiston – yangi sud” tamoyili doirasida aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish sud-huquq tizimini isloh qilishni jadallashtirish, sohaga ilg‘or xalqaro standartlarni joriy etish ko‘zda tutilgan. Shu maqsadda mazkur hujjatga muvofiq, “2023 – 2026-yillarga mo‘ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi” tasdiqlandi.

Albatta, Strategiya doirasida odil sudlovni ta‘minlashga qaratilgan bir qator ustuvor vazifalar amalga oshiriladi. Xususan, “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida chinakam adolatlilik sud tizimi shakllantirilib, uning faoliyati xalq manfaatini va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo‘naltiriladi. Adolatlilik sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanadi. Eng muhimi, har bir shaxs sud va sudyalarning siyosida o‘zining ishonchli himoyachisini ko‘rishga erishish lozim. Shuningdek, fuqarolar hamda tadbirkorlarga o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilib, sud ishlarini yuritishda tortishuv va ta‘raflarning tengligi tamoyillari to‘laqonli ro‘yobga chiqiriladi. Sudlarning xolisligini amalda ta‘minlashga qaratilgan qonunchilik takomillashtiriladi. Sudlar faoliyati to‘liq raqamlashtiriladi, sun‘iy intellekt texnologiyalari joriy etiladi. Idoralararo elektron ma‘lumot almashuvi yaxshilanadi, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Bundan tashqari, sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlari kuchaytirilib, sudga hurmatsizlik qilish va sud ishiga aralashish holatlarining oldini olish bo‘yicha samarali mexanizmlar ishlab chiqiladi. Sud qarorlarining qat‘iy ijrosi ta‘minlanadi, bu borada davlat organlari va mahalliy hokimliklarning mas‘uliyati oshiriladi. Sudyalarning va sud xodimlarida yuksak muomala madaniyatini shakllantirish orqali sudga murojaat qilgan har bir fuqaro va tadbirkor sudan, pirovardida esa davlatdan rozilik hissini uyg‘otish zarur.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura va Adliya vazirligi hamkorligida jinoyat ishlari bo‘yicha sud qarorlari qonuniy, asosli va adolatlilik qabul qilinganligini tekshirishning fuqarolarga qulay va soddalashtirilgan tartibi yaratilishi e‘tiborga molik. Ayni paytda buning uchun qonun loyihasi ishlab chiqilgan. Yangi qonun asosida tumanlararo, tuman, shahar sudlari tomonidan birinchi instansiyada ko‘rilgan ishlarni viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida qayta ko‘rib chiqish, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tomonidan apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rilgan ishlarni mazkur sudlarda taftish tartibida qayta ko‘rib chiqish, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tomonidan taftish tartibida ko‘rilgan ishlarni Oliy sudning sudlov hay‘atlarida taftish tartibida qayta ko‘rib chiqish, yuqori instansiya sudlari tomonidan ishni yangidan ko‘rish uchun quyi sudlarga yuborish tartibini bekor qilish va ularga ish bo‘yicha yakuniy qaror qabul qilish mas‘uliyatini yuklash tartibi yaratiladi.


Sir emaski, sudyaga har qanday ta‘sir yoki bosim o‘tkazish odil sudlov sifatiga putur yetkazadi. Binobarin, yuqoridagi farmonda sudyalarning chinakam mustaqilligini ta‘minlash maqsadida ularning ishiga har qanday aralashuv qat‘iy jazolanishi, sudyalarning xavotirsiz ishlashi davlat tomonidan ta‘minlanishi qayd etildi. Shunga ko‘ra, sudga hurmatsizlik qilish holatlarini oldini olishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, buning uchun ma‘muriy javobgarlik choralarini kuchaytirish va jinoyi javobgarlik belgilash, sud ishlarini hal etishga aralashganlik va sud hujjatini ijro etmaganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish, shuningdek, sud hujjatlarining ijro etilishini ta‘minlashga qaratilgan ta‘sirchan mexanizmlarni joriy etish, odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashganlikka oid har bir jinoyat ishi yakuni bo‘yicha jamoatchilikni ommaviy axborot vositalari orqali majburiy ravishda xabardor qilish tartibini joriy etish ko‘zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, amalga oshirilishi ko‘zlangan sud-huquq islohotlari yurtdoshlarimizning davlatga, amaldagi qonunlarimizga bo‘lgan ishonchi va hurmatini oshiradi. Vatan taraqqiyoti uchun daxldorlik hissini yuksaltiradi.

Nodirjon KIMSANOV,
jinoyat ishlari bo‘yicha Qo‘qon shahar sudiyasi

EGASIZ mol-mulk vafot etgan shaxsdan keyin qolgan va hech kim da’vo qilmagan yoki vasiyatnoma bo‘yicha ham, qonun bo‘yicha vorislik huquqi bo‘yicha ham e’tiroz bildirsa olmaydigan mol-mulkdir. Vasiyat qilmay vafot etgan shaxslarning mol-mulki egasiz mol-mulka aylanadi.

EGASIZ MOL-MULKKA KIM EGALIK QILADI?



Fuqarolik kodeksining 1157-moddasi egasiz qolgan mol-mulk haqida. Mazkur moddaga ko‘ra, agar qonun bo‘yicha ham, vasiyatnoma bo‘yicha ham merosxo‘rlar bo‘lmasa yoxud merosxo‘rlardan hech qaysisi vorislik huquqiga ega bo‘lmasa yoxud ularning hammasi merosdan voz kechgan bo‘lsa, meros mol-mulk egasiz deb hisoblanadi.

Meros mol-mulk meros ochilgan joydagi mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining arizasi bo‘yicha meros ochilgan kundan e’tiboran uch yil o‘tgandan keyin sudning qarori asosida egasiz deb topiladi. Meros mol-mulk, agar uni qo‘riqlash va boshqarish bilan bog‘liq xarajatlar uning qiymatidan oshib ketsa, ko‘rsatilgan muddat o‘tishidan oldin egasiz deb topilishi mumkin.

Egasiz mol-mulk u turgan joydagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mulkiga o‘tadi, bu organ mol-mulkdan voz ke-

chgan taqdirda, davlat mulkiga o‘tadi.

Egasiz mol-mulkni qo‘riqlash va boshqarish mazkur kodeksning 1144-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi. Mazkur moddaga ko‘ra, agar qonun bo‘yicha merosxo‘rlar bo‘lmasa yoki noma‘lum bo‘lsa, mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi merosni boshqaruvchi tayinlanishini so‘rab notariusga murojaat etishi lozim. Qonun bo‘yicha merosxo‘rlar hozir bo‘lganlari taqdirda, ularning talabi bilan merosni boshqaruvchi meros hisobidan zarur bo‘lgan xarajatlar va oqilona haq to‘langan holda chaqirib olinishi mumkin.

Shuningdek, vorislik mol-mulkini egasiz deb topish to‘g‘risidagi sudning hal qiluv qarori ustidan marhumning vorisi umumiy asoslarda shikoyat qilishi mumkin. Bunga hayotiy misollar ko‘p. Masalan, K.ning noqonuniy nikohidan N. ismli o‘g‘li bor. K. vafot etgan paytda uning o‘g‘lidan boshqa qarindoshlari tirik qolmagan edi. O‘g‘li boshqa davlatda yashardi. Shu sababli u otasining vafot etganligini eshitmadi. K.ning boshqa tanishlari ham N.ning borligidan xabarsiz edi.

K. vasiyatnoma qoldirmagandi. Uning vafotidan keyin u yashagan kvartira-si egasiz qoldi. Notarius fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organini kvartirani qo‘riqlash uchun javobgar qilib tayinladi. Shu tariqa fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi kommunal xizmatlar va soliq organlarining to‘lovlarini o‘z vaqtda to‘lab bordi.

Meros ochilishi kundan boshlab 3 yil o‘tganidan keyin fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi sudga ushbu kvartirani egasiz mol-mulk deb topish va uni organning mulkiga topshirish to‘g‘risida da’vo taqdim etadi. Biroq oradan yarim yil o‘tgach, K.ning o‘g‘li otasining vafot etganidan xabar topib, u yashagan shaharga keladi. Bu yerda boshqarlardan otasining kvartirasi to‘g‘risida eshitadi.

K.ning o‘g‘li sudga o‘zini voris deb topish va sudning avvalgi hal qiluv qarorini haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida da’vo taqdim etdi. Sud sudning avvalgi hal qiluv qarorini bekor qildi va o‘g‘lini voris deb topdi. Biroq endi N. fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi vorislik mol-mulkini qo‘riqlash bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlarni qoplashi kerak.

Guimira AKMURODOVA,
Qorovulbozor tuman FHDYo bo‘limi
1-toifali inspektori

E‘LONLAR

Navoiy viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 10-yanvardagi 3-um-sonli buyrug‘iga asosan advokat Bozorov Nurali Davlatovichga boshqarma tomonidan 2018-yil 28-dekabrda berilgan NVN 000035-raqamli advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokat maqomi tugatildi.

Advokat Ikromov Akmal Anvarovichga 2018-yil 25-dekabrda berilgan GZ 000005-sonli advokatlik litsenziyasining amal qilishi va advokatlik maqomi 2023-yil 23-yanvar kundan tiklandi.

Xorazm viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 16-yanvardagi 9-um-sonli buyrug‘iga asosan “TULKIN LAWYER” advokatlik byurosi advokati Tursunbaev Tulkin Yuldashevichga boshqarma tomonidan 2022-yil 7-iyun kuni HZ № 000206 raqami bilan berilgan advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokat maqomi tugatildi.

Buxoro viloyat adliya boshqarmasi tomonidan “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq boshqarmaning 2023-yil 18-yanvardagi buyrug‘i bilan “Nuri Masrur” advokatlik byurosi advokati Jamilov Shoyimjon Mirzoqulovich-

ning (litsenziya 13.12.2019, BH № 000157, advokatlik guvohnomasi № 154, 12.02.2019 y.) advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi hamda advokatlik maqomi u ayblanuvchi tariqasida jalb etilgan paytdan boshlab va sud hukum qonuniy kuchga kirguniga qadar yoxud reabilitatsiya qiluvchi asoslarga binoan uni jinoyi javobgarlikdan ozod etish to‘g‘risida qaror qabul qilgungacha qadar bo‘lgan muddatga to‘xtatildi.

Namangan viloyat adliya boshqarmasi tomonidan “Huquq himoyasida” advokatlik firmasi advokati Rasulov Toxirjon Imomberdiyevichga boshqarma tomonidan 24.12.2018-yilda berilgan NA 000097-sonli advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 16-moddasiga asosan tugatildi.

“ISKANDAR ADVOKAT” advokatlik byurosi advokati Raximjanova Shaxnoza Maxmudjonovna arizasiga asosan uning advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilishi va advokat maqomi Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 18-yanvardagi 8-um-sonli buyrug‘i bilan tugatildi.

8 HIKOYA

- VIJDON, - deya so'z boshladi pan Latsina. - Menimcha, hozir bu so'z sal boshqacha-roq ma'noda ishlatiladi. Balkim, uni endilikda "mavhum tasavvurlar" toifasiga kiritisa bo'lar, haytovur, siz u bizga baribir emasmi? Bilmadim, sizlar fabrikant Girke voqeasini eshitganmisizlar, yo'qmi, uni judayam boy va obro'li, qad-qomati kelishgan, pahlavon kelbatli janob deyishardi. Anchadan beri so'qqabosh ekan. U haqda hech kim boshqa hech narsa bilmadi. Xullas, u ana shunday odamovi, sirli va o'ziga xos kishi edi. U qirg'qa kirganida endigina o'n yettiga to'lgan, qo'g'irchoqdekkin do'ndiqchani sevib, unga uylandi. Yuragida qo'ri, belida quvvati bor ekan-da boyaqishning. Haqiqiy go'zalikdan gohida odamning yuragi g'ash tortadi, ba'zan nimagadir iching achisha boshlaydi, ba'zan qalbingga neder nafasat oqib kirganini sezmayсан, ishqilib shunaqa-da! Girke ana shunday latofatli qizga uylangandi - u judayam badavlat, qo'li uzun odam edi-da!

Karel CHAPEK



MAVHUM tasavvur

Kelin-kuyov asal oyini o'tkazish uchun Italiyaga jo'nab ketishdi. U yerda g'alati bir hodisa yuz berdi. Venetsiyadagi mashhur cherkov minorasiga chiqishgach, Girke u yerdan pastga qaragan - aytishlaricha u yerdan hammayoq juda chiroyli ko'rinarikan, - shunda Girkening rangi oqarib, xotiniga yuzlanganda, xuddi arralangan daraxtdek uning oyoqlari ostiga qulab tushgan. Shundan beri Girke yanada odamovi bo'lib qoldi. U o'zini xuddi hech narsa bo'lmagandek tutishga harakat qilsa-da, tashqi ko'rinishi anchayin o'zgargan, bezovtaligi yaqqol sezilib turardi. Xullas, o'shanda xotini juda qattiq xayotirga tushgan va erini olib darrov uyga qaytgan. Ularning uyi juda chiroyli, hashamatli bo'lib, derazalari shahar xiyoboniga qarab turardi. Girkening ruhiyatidagi o'zgarishlar ham ana shundan keyin boshlandi. U har doim derazalarning yonidan ketmas, ularning yopilgan-yopilganini tekshirib yurardi. Kutilmaganda o'tirgan joyidan sapchib turardi-da, yana derazalar tomonga yugurardi. Hatto, kechalari ham xuddi arvohdek butun uy

bo'ylab izg'ir, hamma savollariga boshi tinimsiz aylanayotgani, derazalar ochiqligi va ularni darhol tamlab olishi kerakligini aytib g'olirdirdi. Shunda xotini hamma derazalarga panjara o'rnatish kerakligini aytdi. Bu tadbir bir necha kungagina asqotdi. Girke biroz tinchlandi, ammo, ko'p o'tmay, deraza panjaralarining mustahkam yoki omonat ekanini bilish uchun silkitib ko'rishga tushdi. Bu paytda barcha derazalarga mustahkam po'lat to'siqlar qotirilgan, er-xotin bu yerda xuddi qamoqxonadagi mahbuslar maqomida edilar.

Girke ma'lum muddat xotirjam yurdi. Ammo, keyinchalik zinapoyalardan tushayotganda ham boshi tinimsiz aylana boshlaganini his etdi. U endi falajga uchragandek zinapoya tutqichlarini ushlab arang yurar, bu asnodan naq qora terga botib ketar, zinaning qoq yarmida o'tirgancha xuddi bezgak tutgandek qaltirardi. Shu darajada og'ir edi bechoraga. Tabiiyki, imkon darajasida shifokorlarga murojaat qilindi. Ularning biri ishonch bilan bosh aylanishi organizmning kuchli zo'riqishi natijasidir, desa, boshqasi quloq sohasidagi qandaydir kasallik

belgisi sifatida baholadi. Yana birov qabziyat deb tashxis qo'ysa, to'rtinchisi miya yarim sharlari faoliyatining buzilishi bilan bog'lad.

Yana bir taniqli mutaxassis uni turfa qiynoqlarga solib, yangicha usullar bilan davolab ko'rmoqchi bo'ldi. Yaxshiyamki, Girke hali baquvvat, sog'lom, irodali yigit ekan, hammasiga chidadi. Ammo, hozir u o'rnidan ham qo'zg'alolmay qolgandi. Hatto polga qarashi bilan ko'z oldi qo'rosig'irib, boshi tinimsiz aylanardi. U endilikda faqat, ko'zlarini ham ochmasdan, kreslosida harakatsiz o'tirar va yelkalarini silkitib unsiz yig'lar-di. O'sha paytlarda allaqanday yangi doktor, nevropatolog Shpits haqidagi gap-so'zlar shoyon bo'lgandi. U aynan mavhum tasavvurlar bo'yicha mutaxassis ekan. Uning ta'kidlashicha, har qanday odamda hayoti davomida ong ostida xilma-xil qo'rqinchli tasavvurlar, noxush xotiralar, sog'inch va ehtirolar, saqlanib qolar, vaqti-vaqti bilan ular uyg'onib, odamning ruhiyatida tushuniksiz ziddiyatlar, asabiyo'riqish va kasalliklarni keltirib chiqararkan. Agar shifokor ana shu mudhish tasavvurni

aniqlab, miyadan siqib chiqara olsa, bemor o'zini yengil his qilishi, hatto butunlay sog'ayib ketishi ham mumkin ekan. Faqat, shifokor ruhiy tahlil yordamida bemorning ishonchini to'la-to'kis zabt etolsagina, uni azoblayotgan eski xotira, tasavvur, yoxud tushdagi alahsirash asoratini ilg'ay olarkan. Shundan so'ng shifokor aytar ekan: "og'aynichalish, bir paytlar sizning hayotingizda shunday-shunday ish bo'lgan ekan-u (bu juda uyatli biror ish bo'lishi ham mumkin) shu narsa sizning xotirangizda qayta-qayta jonlanaverib, holi-joningizga qo'ymayapti ekan, bizningcha bu ruhiy jarohat deb ataladi. Endi biz bu jarohatni topdik. Siz undan tamomila qutuldim deb hisoblayvering, vallohu a'lam endi siz soppa-sog'siz" der ekanu, shu bilan olam guliston.

Lekin tan olish kerakki, shu do'xtir chin ma'noda mo'jiza yaratdi. Siz aynan mavhum tasavvurlardan qanchadan-qancha boylar aziyat chekishini aqlingizga ham sig'dirolmay-siz. Bu narsalar kambag'allarni kam bezovta qiladi. Xullas, shpitsning mijozlari o'ziga xos edi. Xullasi kalom Girkeni tibbiyot olamining kazo-ka-

zolari tekshirib ko'rib, biror iloj topolmagach, shu Shpitsga murojaat qilishdi. Shpits esa, bu haqda eshitishi bilan bosh aylanishi aynan asab bilan bog'liq ekan, bu xastalikdan osongina qutulish mumkinligini aytdi. Faqat, shu Girke deganlari bilan gaplashish oson kechmadi. Bemor uning savollariga chaynala-chaynala arang javob qaytardi, keyin esa, doktorga eshikni orqasidan berkitishni buyurdi. Shpits qattiq hayajonda edi. Bunaqa ruhiy tushkunlik bemorning obro'-e'tiboriga ham soya solardi-da! Bu holat asab kasalliklari orasida juda kam-yob hodisa sanalardi. Ikkinchi tarafdan, bechora, o'n gulidan bir guli ochilmagan paniirma... shunday qilib, bizning do'xtir shu ishga jon-jahdi bilan kirishdi. "Men Girkedagi o'sha mavhum tasavvur yoxud mudhish xotirani topishim va undan xalos etishim kerak, buni uddalolmasam, tibbiyotni tark etib, do'konga borib, xotirlarning ichki kiyimini sotganim bo'lsin", - deya o'ziga o'zi ahd qildi do'xtir Shpits.

U ruhiy tahlilning yangi usulini qo'llashga qaror qildi. Dastavval, Girkening yaqin qarindosh-urug'lari, aka-ukalari, tog'ayu ammalari, bojayu qaynog'alar bilan tanishib, ularning ishonchiga kirib oldi. Tajribali do'xtir diqqat bilan tinglay bilishi kerak. Qarindosh-urug'lar do'xtirning nazokati, xushmuomalaligi, samimiyatiga tan berishdi. Alaloqibat, do'xtir birdaniga jiddiy qiyofaga kirdi-da, bir nufuzli idoraga murojaat qilib, ma'lum bir manzilga ikkita ishonchli mas'ul xodimni jo'natishni so'radi. Xodimlar ishini uning foydasiga hal etib qaytgach, Shpits ularni rozi qilib, to'ppa-to'g'ri Girkening uyiga yo'l oldi. U hamon nimqorong'i xonada, qimirlashga ham majol topolmay o'tirardi.

- Janob, - dedi unga do'xtir Shpits. - Sizni ortiqcha bezovta qilib o'tirmayman. Istamasangiz, savollarimga javob bermasligingiz ham mumkin. Men qanday bo'lmasin, boshingiz aylanishi sababini bilishim kerak. Siz qandaydir mavhum tasavvurni ongingizga haydat kiritgansiz. U esa, sizning sog'lig'ingizni butunlay izdan chiqarayotir.

Rus tilidan
Rustam JABBOV
tarjimasi

Davomi keyingi sonda.

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLITYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 31-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



TAHRIR HAY'ATI

Bosh
muharrir

Asliddin
ALIMARDON

Muzraf Ikramov
Eldor Maxkamov
Shoxidaxon Yuldasheva
Sevara O'rinboyeva
Yorбек Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Marusa Hosilova
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "Business print" xususiy korxonasi bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, So'g'ali ota, 5a-uy

Tiraj - 3790
Buyurtma - 09

To'plash vaqti - 19:00
To'plashirildi - 19:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shoxko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:

(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5